XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 2-noyabr VII-31-83-11-163-K/26 Farg‘ona tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona tumanidagi Xalq qabulxonasining 2026-yilning to‘qqiz oyi davomida tumanda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona tumanidagi Xalq qabulxonasining (keyingi o‘rinlarda Xalq qabulxonasi) 2026-yilning to‘qqiz oyi davomida tumanda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda aholi muammolari bilan ishlash ahvoli to‘g‘risidagi axboroti hamda ushbu masalani o‘rganish yuzasidan tuzilgan ishchi guruhning ma’lumotnomasi doimiy komissiyada ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlandiki, Xalq qabulxonasi tomonidan o‘tgan davr mobaynida davlat organlari, korxona va tashkilot rahbarlarining aholi muammolari bilan ishlash hamda fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–51-son Farmoniga asosan asosan amalga oshirilgan ishlar quyidagicha:

Bugungi kunda aholi vakolatli davlat organlari, muassasalar hamda xalq vakillariga o‘zlarini qiynayotgan masalalar bilan to‘g‘ridan–to‘g‘ri murojaat qilmoqda.

Hususan, Davlatimiz rahbari boshchiligida **2026-yil**ning **13-mart** kuni o‘tkazilgan **«Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga ko‘tarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish»** masalalari yuzasidan o‘tkazilgan video selektor yig‘ilishida ham eng ko‘p murojaat kelib tushuvchi masalalar va murojaatlarni tahlil qilish, hal etish choralari ko‘rib chiqildi.

Murojaatlarni yo‘nalish va sohalar bo‘yicha tahlil qilish ularning asosiy omillarini va dolzarb muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Hususan, **2026-yil 1-yanvardan 1-oktabrga qadar Farg‘ona tumani** aholisidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga jami **2 504 ta** murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularda **2 711 ta**

masala ko‘tarilgan. Murojaatlarning **1 859 tasi (74,2foiz)** Ishonch telefoni orqali qoldirilgan.

Ko‘tarilgan masalalarning **2 304 tasi** bo‘yicha tegishli idora va tashkilotlarning javoblari tasdiqlangan bo‘lib, shundan **atigi 721 tasi (32,9foiz)** ijobiy hal etilgan xolos.

Achinarlisi, javob berilgan masalalarning **1 321 tasi (57,3foiz)** faqatgina huquqiy ma’lumot berish orqali yopilgan, **142 tasi** tushuntirish berish bilan cheklanilgan, **31 tasi** rad etilgan, **56 tasi** bo‘yicha ko‘rib chiqish tugatilgan va **10 tasi** ko‘rmasdan qoldirilgan.

Bu holat murojaatchilarning aksariyat qismi o‘z muammosiga amaliy yechim ololmayotganidan dalolat beradi.

Kelib tushgan **2 504 ta** murojaatning **47 tasini (1,88foiz)** jamoaviy murojaatlar tashkil etgan bo‘lib, ulardagi **53 ta** masaladan **37 tasi** bo‘yicha javob berilgan, shundan **faqatgina 11 tasi (29,7foiz)** ijobiy hal etilgan. Jamoaviy murojaatlardagi **12 ta** masala hanuzgacha o‘rganilmoqda, **4 ta** masala bo‘yicha esa javob hali kiritilmagan.

Jamoaviy murojaatlardagi masalalarning eng ko‘pi «Hududgaz Farg‘ona» gaz ta’minoti filiali **8 ta**, «Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» AJ **8 ta**, **Farg‘ona tumani** Obodonlashtirish boshqarmasi va **Farg‘ona tumani** hokimligi **4 tadan**, **Farg‘ona tuman** prokuraturasi va Suv xo‘jaligi vazirligi **3 tadan**, Farg‘ona viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi **2 ta** hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Jamoaviy murojaatlarda asosan gaz ta’minoti, hisoblagichlar va hisob-kitoblar bilan bog‘liq masalalar **(9 ta)**, elektr tarmoqlari holati, uzilishlar, hisoblagichlar va hisob-kitoblar bilan bog‘liq masalalar **(9 ta)**, ichki yo‘llar, avtomobil yo‘llari, ko‘priklar holatiga oid masalalar **(7 ta)** va tomorqani sug‘orish uchun suv tanqisligi, fermer va dehqon xo‘jaliklarini suv bilan ta’minlash va suv xo‘jaligi ob’ektlari holatiga oid masalalar **(4 ta)** ko‘tarilgan. Hududlar kesimida eng ko‘p jamoaviy murojaatlar **Yangi asr MFY (4 ta)**, **Ulug‘bek MFY (4 ta)**, **Maydon MFY (3 ta)**, **Mindonobod MFY (3 ta)** va **Yangi yo’l MFY (3 ta)** aholisidan kelib tushgan.

Jamoaviy murojaatlarning kelib chiqishiga idora va tashkilotlar tomonidan murojaatlar bilan ishlashda tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmaganligi, murojaatlar bilan ishlashga mas’ul xodimlar vakolati doirasidagi ishlarni lozim darajada bajarmayotganligi sabab bo‘lgan.

Kelib tushgan murojaatlarda ko‘tarilayotgan masalalarning asosiy qismi nafaqa tayinlash, moddiy yordam ajratish va pensiyaga oid masalalar **(363 ta)**, aliment, qarz undirish va ijro ishi yuritishga oid boshqa masalalar **(297 ta)**, sodir etilgan huquqbuzarlik va firibgarlik hamda surishtiruv-tergov harakatlariga oid masalalar **(199 ta)**, gaz ta’minoti, hisoblagichlar va hisob-kitoblar bilan bog‘liq masalalar **(176 ta)**, xizmatchilar faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog‘liq masalalar **(137 ta)**, kreditlar, bank plastik kartalari, bankomatlar va to‘lov tizimlari faoliyati bilan bog‘liq masalalar **(113 ta)**, elektr tarmoqlari holati, uzilishlar, hisoblagichlar va hisob-kitoblar bilan bog‘liq masalalar **(103 ta)**,

rahbarlar qabulini tashkil etish so‘rovlari **(88 ta)**, uy-joy ta’minotiga oid masalalar **(81 ta)**, tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun moddiy yordam, tibbiy ko‘rik va yordam, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash, tibbiyot muassasalariga joylashtirish bilan bog‘liq masalalar **(77 ta)**, ish bilan ta’minlash va ishga tiklash masalalari **(57 ta)**, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va ma’lumotlar bazasi faoliyati bilan bog‘liq masalalar **(54 ta)**, davolanishga order, tibbiy-ijtimoiy muassasalarga yo‘llanma berish, nogironlik bilan bog‘liq masalalar **(54 ta)** va fuqarolik sudlari faoliyatiga oid masalalar **(52 ta)** hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Xususan, tumanda eng ko‘p murojaat kelib tushgan **Farg‘ona tumani** «Inson» ijtimoiy xizmatlar markaziga **290 ta** masala kelib tushgan bo‘lib, javob berilgan **255 tasining 178 tasi (69,8foiz)** huquqiy ma’lumot berish orqali yopilgan, **faqat 65 tasi** ijobiy hal etilgan.

Shuningdek, ijrochi tashkilotlar tomonidan tayyorlangan **63 ta** javob nazorat organlari tomonidan rad etilib, qayta ko‘rib chiqishga qaytarilgan.

Kelib tushgan murojaatlarning **390 tasi (15,6foiz)** takroriy bo‘lib, bu avvalgi murojaatlarda ko‘tarilgan masalalar o‘z yechimini topmaganligini ko‘rsatgan. Eng ko‘p takroriy murojaatlar **Yangi asr MFY (26 ta)**, **Konchilar MFY (20 ta)**, **Qo‘rg‘ontepa MFY** va **Langar MFY (18 tadan)**, **Shifokor MFY (17 ta)**, **Mindonobod MFY** va **Qo‘riq MFY (15 tadan)** hududidan kelib tushgan.

Bundan tashqari, Virtual va Xalq qabulxonalariga xizmatchilar faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog‘liq jami **137 ta** masala kelib tushgan bo‘lib, javob berilgan **109 tasidan atigi 26 tasi (23,9foiz)** ijobiy hal etilgan. Murojaatlarda mutasaddi xodimlar tomonidan murojaatlarni to‘liq o‘rganmaslik, murojaatchi bilan bog‘lanmasdan yopish hamda fuqarolar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish holatlari yuzasidan e’tirozlar bildirilgan.

Xususan, mahalla raisi **(18 ta)**, sog‘liqni saqlash sohasi xodimi **(13 ta)**, bank xodimi **(10 ta)**, ichki ishlar organlari xodimi **(9 ta)**, profilaktika inspektori **(8 ta)**, hokimlik xodimi **(6 ta)**, majburiy ijro byurosi xodimi **(6 ta)**, ichimlik suvi ta’minoti xodimlari **(6 ta)**, davlat korxonalari xodimlari **(5 ta)**, elektr ta’minoti xodimi **(5 ta)**, ta’lim sohasi xodimi **(5 ta)**, sudya va sud xodimlari **(5 ta) xatti-harakatlari ustidan eng ko‘p shikoyatlar kelib tushgan.**

Mahalla raislari xatti-harakatlari va faoliyati ustidan kelib tushgan **18 ta** shikoyatning **4 tasi Yangi asr MFY**, **3 tasi Shohimardon MFY**, **2 tadan Mozortagi MFY**, **Konchilar MFY** va **Avval MFY** raislariga tegishli bo‘lib, javob berilgan **17 tasidan faqat 2 tasi** ijobiy hal etilgan.

Murojaatlarning tahlili ayrim davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarida murojaatlar bilan ishlash faoliyatida muammolar saqlanib qolinayotganligi hamda bir qator tizimli kamchiliklarning mavjudligini ko‘rsatgan.

Buning natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga murojaat qilgan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga, murojaatlarda

keltirilgan muammolarning hal etilmasdan qolib ketishiga, aholining davlat idoralariga bo‘lgan ishonchi susayishiga sabab bo‘lgan.

Xalq qabulxonasi tomonidan “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–51-son Farmon talablari asosida faoliyat olib borilgan.

Qabulxonaga kirishda aholi uchun qulay sharoit yaratilganligi hamda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham sharoit yaratilgan.

Xalq qabulxonasida murojaatlarni qabul qilish uchun murojaatlar uchun ochiq va oddiy tartib belgilangan bo‘lib murojaatlarni yozma, elektron va telefon orqali qabul qilish imkoniyati mavjud, navbat va uchrashuv rejasi tushunarli va shaffof bo‘lishi uchun Xalq qabulxonasi binosida hamda tuman hokimligining rasmiy va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e’lon qilish tartibi qo‘llanilgan.

Fuqarolar axborot olishlari va muloqot qilishlari uchun, fuqarolarga qabulxonaning ish vaqti, manzil va murojaat qilish tartibi haqida ma’lumot berilgan, murojaatlar qanday ko‘rib chiqiladi va javob berish muddati qanday ekani haqida aniq va tushunarli axborot berilgan.

Murojaatlarni mahalla kesimida tahlil qilish tumanning qaysi hududlarida muammolar ko‘p to‘planganini aniqlash va maqsadli choralar ko‘rish imkonini beradi.

Misol uchun, Mahallalar kesimida eng ko‘p murojaatlar **Yangi asr MFY (185 ta)**, **Konchilar MFY (139 ta)**, **Qo‘riq MFY (106 ta)**, **Mindonobod MFY (101 ta)** va **Shifokor MFY (95 ta)** hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, **Qo‘riq MFY**da yashovchi bir fuqarodan joriy yilda **74 ta** murojaat kelib tushganligi uning masalalari yuzasidan yakuniy yechim topilmayotganligini ko‘rsatgan.

Murojaatlarning **74.2 foizi — 1859 ta** murojaat ishonch telefoni orqali qabul qilingan. Bu raqam aholi orasida ishonch telefoni xizmatiga talabning juda yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Veb-sayt va Xalq qabulxonasi orqali murojaatlar ham sezilarli ulushni tashkil etadi. Prezident pochtasi va Prezident virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlar nisbatan kamroq bo‘lsa-da, **ularning dolzarbligi yuqori bo‘lgan.**

Har bir kelib tushgan aholi murojaatlari tahlil qilinib, eng ko‘p murojaat tushayotgan mahallalar, eng ko‘p shikoyat kelgan sohalarga ajratib borilishi tahlillar mavjud;

Har oy va har chorak yakunida umumiy murojaatlar soni, ijobiy hal etilganlar ulushi (foiz), takroriy murojaatlar soni, eng ko‘p shikoyat tushayotgan sohalar, hal etilmagan masalalar bo‘yicha sabablar tahlil qilinganligi tahlillar mavjud;

Murojaatlar ko‘paygan hududlarda Xalq qabulxonasi, davlat organi va tashkilot rahbarlari, mahalla raisi va tegishli idoralar ishtirokida ishchi guruhlar tuzilib muammolarni joyiga chiqib o‘rganish hamda amaliy choralar natijasi bo‘yicha hisobot taqdim etish holati bo‘yicha yo‘lga qo‘yilgan.

Murojaatlarni ijobiy hal etish ko‘rsatkichi tumanning o‘rtacha ko‘rsatkichidan past bo‘lgan Farg‘ona tumani oila va xotin-qizlar bo‘limi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi hamda «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazining murojaatlar bilan ishlash holati, 18 yoshgacha bolalar nafaqasi, moddiy yordam va uy-joy bilan ta’minlashga oid murojaatlarni ko‘rib chiqish amaliyoti, murojaatlarni fuqarolar bilan zarur muloqot o‘tkazmasdan yopish holatlari yuzasidan mavjud kamchiliklar, shuningdek, Xalq qabulxonasi tomonidan qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash bo‘yicha ilgari surilgan takliflarning asoslanganligi, dolzarbligi va amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan doimiy komissiya, ishchi guruh a’zolari va ekspertlarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona tumanidagi Xalq qabulxonasining 2026-yilning 9 oyi davomida tumanda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona tumanidagi Xalq qabulxonasi mudir o‘rinbosari S.Muxammadiyevning axboroti qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg’ona tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri o‘rinbosarining mazkur axboroti qoniqarli deb baholansin

3. Xalq qabulxonasi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalarga e’tibor qaratsin:

a) Xalq qabulxonasi tomonidan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojjaaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-apreldagi “Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–51-son Farmoni talablari asosida faoliyat olib borishga qat’iy rioya qilish;

b) Xalq qabulxonasida murojaatlarni qabul qilish uchun murojaatlar uchun ochiq va oddiy tartib belgilanganligi, murojaatlarni yozma, elektron va telefon orqali qabul qilish imkoniyati mavjudligi, navbat va uchrashuv rejasi tushunarli va shaffof bo‘lishi uchun sharoit yaratish;

d) Har bir boshqarma, tashkilot bo‘yicha murojaatlarni ro‘yxatga olish, taqsimlash va ijro holatini elektron kuzatib borish;

e) Elektron tizimda murojaatlar sonini (haftalik, oylik, choraklik, yillik) tahlil qilib borish;

f) Davlat organlari va tashkilotlar kesimida muammolarni hal etish samaradorligi reytingi yuritilishi yuzasidan murojaatlar soni, ijobiy hal etilganlar ulushi (foiz), hal etish muddati, shikoyatlar takrorlanish darajasi to‘g‘risida ma’lumotlarni tahlil qilib borish;

g) Har bir murojaat belgilangan sohaviy kod bo‘yicha ro‘yxatga olib borish;

h) Har oy va chorak yakunida ma’lumotlar jamlanib umumiy murojaatlar soni, o‘tgan davrga nisbatan o‘sish yoki kamayish (foiz), ijobiy hal etilganlar ulushi (foiz), hal etilmagan yoki rad etilgan murojaatlar sonining tahlil qilib borish;

i) Har bir sohadagi murojaatlar tahlil qilinib, sabablarini aniqlash maqsadida ijro hokimiyati vakillari bilan joyiga chiqib o‘rganish bo‘yicha hamkorlik qilish;

j) Sohalar kesimidagi tahlil asosida har chorakda “muammoli sohalar reytingi”ni shakllantirish;

k) Reyting natijalarini Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashiga kiritib muhokama qilib borish;

l) Eng ko‘p murojaat tushgan va ijrosi sust sohalar bo‘yicha tegishli korxona, tashkilotlar rahbarlarining hisoboti eshitib borish;

m) Har oy va chorak yakunida jamoaviy murojaatlar soni va turlarini tahlil qilib borish, samaradorligi past korxona va tashkilotlar rahbarlarining hisobotini Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashida eshitib borish;

n) Xalq qabulxonasi, mahalla fuqarolar yig‘ini, tuman Kengash deputatlari, fuqarolik jamiyati institutlari va “Madad” NNTlar bilan hamkorlikda jamoaviy muammolarni barvaqt aniqlash va oldini olish tizimi yo‘lga qo‘yish;

o) Har oy va har chorak yakunida tuman va shahar kesimida umumiy murojaatlar soni, ijobiy hal etilganlar ulushi (foiz), takroriy murojaatlar soni, eng ko‘p shikoyat tushayotgan sohalar, hal etilmagan masalalar bo‘yicha sabablar tahlil qilib borish;

p) Murojaatlar ko‘paygan hududlarda Xalq qabulxonasi, mahalla raisi va tegishli idoralar ishtirokida ishchi guruhlar tuzilib muammolarni joyiga chiqib o‘rganish hamda amaliy choralar natijasi bo‘yicha hisobot yuritib borish;

q) murojaatlar bo‘yicha tahlil natijalarini ommaviy axborot vositalarida va hududiy veb-saytlarda e’lon qilib borish.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Jo‘rayev), tuman oila va xotin qizlar bo‘limi (X.Abdug‘aniyeva), O‘zbekiston “Mahallalar uyushmasi” Farg‘ona tuman bo‘limi (D.Xomidov), tumandagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (U.Yuldashev), «Hududgaz Farg‘ona» gaz ta’minoti tuman filiali (B.Umarov), tuman elektr ta’minoti korxonasi (M.To‘xtasinov)ga:

murojaatlar soni ortgan yo‘nalishlar bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash;

ijtimoiy, kommunal va infratuzilma sohalaridagi muammolarni tizimli bartaraf etish choralarini ko‘rish;

aholi bilan ishlash samaradorligini oshirish yuzasidan doimiy monitoring olib borish vazifalari topshirilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Jo‘rayev), «Hududgaz Farg‘ona» gaz ta’minoti tuman filiali (B.Umarov), tuman elektr ta’minoti korxonasi (M.To‘xtasinov) hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (T.Isaqov) zimmasiga kelib tushayotgan jamoaviy murojaatlarni tezkorlik bilan

o‘rganish va ularni ijobiy hal etish yuzasidan zarur choralarni ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

Bunda har bir jamoaviy murojaatni tegishli tashkilot rahbarlari tomonidan shaxsan joyiga chiqqan holda o‘rganish, murojaatlarda ko‘tarilgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish hamda fuqarolarning davlat organlari va tashkilotlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilsin.

6. Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori (U.Yuldashev)ga mahallalardagi ijtimoiy xodimlar bilan hamkorlikda fuqarolarga nafaqa tayinlash, moddiy yordam ajratish hamda pensiya ta’minoti bilan bog‘liq masalalar yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, birinchi navbatda, mazkur yo‘nalishlarda aholidan eng ko‘p murojaatlar kelib tushayotgan mahallalarda manzilli uchrashuvlar va tushuntirish tadbirlarini o‘tkazish, fuqarolarni qiziqtirgan savollarga huquqiy asoslantirilgan javoblar berish hamda murojaatlarni joyida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilsin.

7. Majburiy ijro byurosi Farg‘ona tuman bo‘limi, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda tuman oila va xotin-qizlar bo‘limiga:

aliment to‘lovlaridan qarzdor fuqarolarning bandligini ta’minlash bo‘yicha ishlarni kuchaytirish;

doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni ish bilan ta’minlash yuzasidan aniq choralar ko‘rish vazifalari yuklansin.

8. Farg‘ona tuman Mahallalar uyushmasi (D.Xomidov), “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (U.Yuldashev), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona tumanidagi Xalq qabulxonasi bilan hamkorlikda bir oy muddatda murojaatlarni ko‘rib chiqishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, takroriy murojaatlar sabablarini o‘rganish, ijobiy hal etilmagan masalalarni hal qilish hamda murojaatlarni fuqarolar bilan muloqot o‘tkazmasdan yopish holatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezedentining Farg‘ona tumanidagi Xalq qabulxonasi tomonidan berilgan ijtimoiy sohadagi masalalar bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash bo‘yicha takliflari ma’lumot o‘rnida qabul qilinsin.

10. Mazkur masala Xalq deputatlari tuman Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash va huquqiy masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama qilinib, tuman Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘g‘risidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash va huquqiy masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Q.Makarov) zimmasiga yuklatilsin.

12. Ushbu Kengash qarori e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **AXMADJONOV BAXODIR MAXAMMADOVICH**